

# MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH USULLARI

**Raimjonov Sunnatulla O'ktamovich,**  
JDPI Musiqa ta'limi kafedrası  
katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** O'quvchilarga musiqiy ta'lim berish jarayonida zamonaviy interfaol metodlardan foydalanib musiqa mashg'ulotlarini olib borish yo'llari bayon etilgan. Bugungi tezkor davrda yoshlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish, ularni o'z ustida ko'proq ishlashga jalb etish, ta'lim berish jarayonlarida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan ko'proq foydalanish, muammoli vaziyatlardan tez chiqib ketish, o'zini-o'zi tahlil qila olishi, musiqa madaniyati darslarida ritm hissi, badiiy obrazli ijro etish, talafuzga e'tibor berish, intonatsiyani to'g'ri qo'yish, sifatli kuylash metodlari kabilar bayon etilgan.

**Kalit so'zlari:** Zamonaviy texnologiya, musiqa, talim-tarbiya, tadbiiq, yosh avlod, vizual o'qitish, O'rta-Osiyo, og'zaki metod, ko'rgazmali metod, amaliy metod, mikro ta'lim, modul texnologiyasi, labirint, muammolar maydoni, adabiyot, tarix.

Yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar barcha fanlar qatori musiqa fanlarini o'qitish ishiga ham tadbiiq etilmoqda. Kelajagimiz yaratuvchilari bo'lgan yosh avlodni xar tomonlama etuk va barkamol shaxslar bo'lib etishishiga, bunday texnologiyalar asosida ta'lim berish ilgarigi ish uslublarimizga qaraganda progressiv ahamiyatga ega.

Garchi musiqa fanlarini o'qitish ko'prok amaliy ravishda olib borilsada, unda ko'prok o'qituvchilarning amaliy foaliyatiga tayanilsada, musiqa fanlarining yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlaridan foydalanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari, nazariy bilimlari mavjud.

Bolalar bilan o'tkaziladigan musiqa madaniyati mashg'ulotlarida o'rgatiladigan asarlar ularda faqat eshitishni rivojlantirib qolmay, balki

talaffuzni, soʻzlarni boʻgʻinlarga boʻlib ijro etish, ritmikani, xarakatni, intonatsiyani, ovoz hosil qilishni ham rivojlantiradi. Shuning uchun ritmik ohangni soʻzlar bilan bolalar bilan birga kuylashga va ayrim jumalarni takror kuylashga eʼtibor berish kerak.

Hozirgi zamon musiqasining ritmik tuzilishi, takt oʻlchovining bir xillikdan chiqishga intilish, keskin farqlanadigan ritmdan foydalanishda talaffuz ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamon bastakorlari tomonidan yaratilgan bolalar musiqasini turli ritmlar bilan boyitib va bu asarlar ona tili va jismoniy tarbiya mashgʻulotlarida oʻz ritmikasi bilan nozikligi, soʻzlarning ohangdorligi va serjiloligi bilan ajralib turadi.

Oʻquvchilar bilan ishlashda asarning obrazli maʼnosiga emas, balki uning ritmik tomoniga soʻzlarning aniq talaffuziga va lad-tonallik tuzilmasiga eʼtibor berish kerak. Oʻquvchilar oʻzbek musiqasiga yaqin intonatsiyali asarlarni osonroq tushunadilar. Bunday asarlar koʻplab bastakorlarimiz tomonidan yaratilmoqda. Masalan, bolalar kompazitorlari Dilorom Omonullaeva, Avaz Mansurov, Fattoh Nazarov, Xabibullo Rahimov, Shermat Yormatovlar tomonidan yaratilgan zamonaviy musiqa tili bolalarga yaqin, uning gʻoyaviy mazmuni esa ijobiy axloqiy fazilatlarni tarbiyalaydi. Oʻqituvchi maktabda sinfdan tashqari mashgʻulotlarini ham olib borishi jarayonida oʻquvchilar bilan musiqa haqida suhbat oʻtkazishi va ularning diqqatini asarning soʻzlarini uygʻunlashuviga, ritmik harakat mazmuniga qaratishi kerak. Oʻquvchilarning musiqiy tafakkuri rivojlanishining muhim ahamiyati, ular kompozitor va bastakorlarimiz yaratgan asarlardagi ritmik harakatlarni yoʻlga qoʻyish, soʻzlarning musiqa ohangiga mos kelishi hamda gimnastik mashgʻulotlarni toʻgʻri bajarishda intonatsion tuzilmalarning xalq milliy harakterini ochib berib, oʻzlashtirib borishi maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi zamon kompazitorlari va bastakorlari asarlarida yangi musiqiy obrazlar yaratilgan boʻlib, musiqiy obrazlar, yaʼni: intonatsiya, talaffuz, diksiya, lad, ohangdoshlik, ritm va tembr yangilanishiga va yangi musiqiy ifodalash vositalarining vujudga kelishiga ham sabab boʻlib, intonatsion tuzilmaning yangicha bayon qilinishi zamonaviy musiqa tilining muhim vositasidir.

Intonatsiya – asarda kompazitor ko‘rsatgan musiqiy mazmuni ko‘rsatishi sababli unda talaffuzni ifodalashning yangi musiqiy-badiiy vositalarining belgilari hisoblanadi. Hozirgi kompazitorlarning asarlarida musiqiy obrazlarni intonatsiyali yoritish uchun musiqiy ifodalilikning hamma vositalaridan foydalaniladi, ya’ni: xalq qo‘shiq va kuylarida necha asrlardan buyon o‘ziga xos barqaror tovushlar, so‘zlar, intonatsiyalar shakllangan bo‘ladi, shuning uchun zamonaviy kompazitorlar ularga murojaat qilishlariga to‘g‘ri keladi va uni xis etib yangi asarlar yaratib kelmoqdalar.

O‘zbek musiqasi ham O‘rta Osiyodagi boshqa halqlarning musiqalari singari uzoq davrlar mobaynida faqat qo‘shiq, vokal janrlariga tayangani sababli u milliy folklor va xalq ohanglari asosida rivojlangan, keyin bastakorlar qayta ishlab chiqib xalqqa taqdim etishgan.

Yevropa musiqa madaniyatining ta’siri o‘zbek qo‘shiqlariga so‘z ohanglariga o‘z ta’sirini o‘tkazib kelmoqda va bu jarayon uzoq davom etganligi sababli, hozirgi zamon kompazitorlari va bastakorlari o‘zbek musiqasining rivojlanishida yuksalish yuz bergani va bastakorlarining ijodiy obro‘-e’tibori ortgani shubhasizdir. Shu boisdan musiqa mashg‘ulotlarini olib borishda unli tovushlarni tug‘ri talaffuz qilish orqali mashg‘ulotlarini olib borishda, o‘zbek milliy ohanglari va ritmi turli janrlarda ifodalanishini talabalar ongiga singdirishi muhim omil vositasini ta’minlaydi.

Bugungi kunda innovatsiyalardan muammoli va axborotli ma’ruza, vizual o‘qitish (turli fan o‘qituvchilarining) ketma-ketlikda bir mazvu bo‘yicha darslarning tashkil etilishi hamda majburiy konferensiyalaridan foydalanish tajribasi asosida ish ko‘rilmokda. Buni biz musiqiy fanlar bilan kuchli darajada bog‘liq fanlar jumlasidan tarix, til va abadiyot va jismoniy ma’daniyat fanlari orqali amalga oshirishimiz mumkin. Masalan tarix fani mavzusi O‘rta - Osiyoda xonliklari davri (XVI-XIX asrlar) bo‘lsa, musiqiy fanlar mavzusini ham xonliklar davri xalq musiqalari yoki xonliklar davrida shashmaqomning shakllanishi yoki o‘zbek qo‘shiqchilik san’atida uch yo‘nalishning paydo bo‘lishi va uning O‘rta-Osiyoda uch xonlik mavjud bo‘lgan davrga bog‘liqligi, shuningdek jismoniy tarbiya

darslarida milliy sportimiz taraqqiyoti, jumladan kurash sporti, ko'pkari, dorbozlik, tosh ko'tarish, ot poygasi, qiz quvdi kabi sport o'yinlari mavjud bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotlar orqali o'quvchilarning tarix faniga doir bilim va malakalarini mustaxkamlashga ko'maklashishi mumkin. Buning uchun darslarni rejalashtirish jarayonida ushbu fandan dars beruvchi o'qituvchi murabbiylarning hamkorligi zarur bo'ladi.

Hozirgi davrda ta'lim metodlari xilma – xil uslublardan tarkib topdi, ayni vaqtda pedagogikada quyidagi faol metod va uslublar ko'proq qo'llanilmoqda; Jumladan,

**Mikro ta'lim** - o'quv materialini bo'limlarining kichik qismlarini ketma-ketlikda faoliyatga tatbiq etish. Mazkur ta'lim tarafdorlari ko'pqirralikni, dars kirish qismining muhim elementi sifatida tavsiya etadilar. Bu metodni musiqa darslarining musiqa savodi faoliyat turida va cholg'u sozlari ijro etish hamda ritmik harakatlar faoliyat turlariga tatbiq etishimiz mumkin. Masalan: musiqa savodi faoliyat turida biz notalar balandligi mavzusini o'rganayotgan bo'lsak, avval *do* notasi, keyin *re* notasi, so'ngra *mi* notasi, balandliklarini ketma-ketlikda o'rganish; cholg'u sozlari chalish faoliyat turida esa o'rganilayotgan asarning avval 1 frazasini (4 takt), so'ngra 2 frazasini; musiqali ritmik harakat faoliyati turida esa, o'rganilayotgan musiqa asarining avval bir jumlasini (8 takt), so'ngra 2 jumlasiga musiqali raqs harakatlarini o'rgatishimiz mumkin. Xuddi shunday, bu metod qo'shiq kuylash faoliyat turiga ham tatbiq qilinishi mumkin. Ya'ni qo'shiqning avval birinchi kupleti, so'ngra ikkinchi kupleti alohida-alohida o'rganilishi va ular ketma-ketlikda amalga oshirilishi mumkin.

---

**Ta'lim modul texnologiyasi** (bayonning didaktik bir – biriga teskari) musiqa darsini tashkil qilishda qo'llanilmagan musiqiy faoliyat turlari (musiqa tinglash, ashulla aytish, cholg'u sozlarini chalish, musikalik ritmik harakatlar bajarish, musiqa savodi va boshqalar) ning bir mavzuga yo'naltirilishi didaktik birlik hisoblanadi. Bu metod musiqa mashg'ulotlari va darslarida muvaffaqiyat bilan qo'llanilib kelmoqda.

---

Shuningdek, musiqa darslari o'quvchilar bilimini tahlil qilish uchun test savollari tuzilib, sinovlar o'tkazilmoqda.

**Mavzular mazmuniga muvofik bilimlarni majmualash** – (birinchi dars axboratli, ikkinchi dars muammoli, uchinchi dars amaliy, to'rtinchi dars mustahkamlash) bu metod ham musiqa darslarini rejalashtirish jarayonida o'z aksini topib, yillik mavzu asosida rejalashtirilgan choraklik mavzularini yoritishda qo'llaniladi.

**Ilg'or vositalar yordamida o'quv matnlarini qismlarga bo'lib o'rganish** – muayyan ketma-ketlikda va uzluksiz ravishda. Bu metod ham musiqa darslarini rejalashtirish jarayonida hisobga olinadi va yil bo'yicha o'tilgan darslar, avvalo o'tilgan oraliq mavzularni hamda shu orqali yillik mavzularni o'zlashtirishga qaratilgan.

**Ishbilarmonlik o'yinlarini qo'llash** – (Misol uchun: “Labirint”, “muammolar maydoni” va boshkalar). Bu metod musiqa darslarida musiqali topishmoqlar shaklida qo'llaniladi.

**Muhokamali ta'lim metodlari** (o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilimlar hajmini aniqlash – muammolar tahlili, fanlararo aloqalarni o'rganish, muammolarni mustaqil hal etishga tayyorlash) - bu metod musiqa darslarining musiqa tinglash faoliyat turida qo'llash uchun mos keladi masalan: Shoir Alisher Navoiy, yoki Bobur Mirzo g'azallari asosida kuylangan mumtoz ashulalar, yoki maqomlar tinglash uchun berilgan bo'lsa asar to'g'risida tushuncha berishdan oldin uning mualliflari, ya'ni shery matn muallifi va musiqa bastalagan bastakor to'g'risida tushuncha berish lozim. Shunday ekan Alisher Navoiy yoki Bobur ijodi to'g'risidagi o'quvchilarning adabiyot, tarix fanlaridan olgan bilimlarini sinash va mustahkamlash maqsadida yuqorida nomlari ko'rsatilgan yoki boshqa mualliflar hayoti va ijodiga oid savollar og'zaki kartochkalar shaklida yoki test shaklida o'quvchilarga tarqatilib, berilgan javoblar orqali o'quvchilar bilimini aniqlash mumkin, lekin, shuni aytish kerakki, musiqa tinglash faoliyat turi uchun ajratilgan 5-7 minut vaqt musiqa asrini tinglash asar mualliflari, asar mazmuni to'g'risida o'quvchilarga tushuncha berish uchun etarli emas. Agar darsda savol kartochkalari

test savollari orqali bolalar bilimini oshirmoqchi yoki sinab ko'rmogchi bo'lsak buning uchun ajratilgan vaqtni o'zlashtirish zarur bo'ladi.

**Mavjud muammolarni hal etuvchi vaziyatli tahlil** (“vaziyat tasvir”, “vaziyat baho”, “vaziyat muammo”, “vaziyat mashq”) metodi. Ushbu metod dars jarayonida bajariladigan barcha ishlarni vaziyatga ko'ra tanlash lozimligini bildiradi, ya'ni mazmunning mohiyatini yaratish zaruriyati dars jarayonida turli vaziyatlarni paydo qiladi va shundan kelib chiqqan holda o'quvchilarga vaziyatga ko'ra tasvir (rasmlar, fotosuratlar, o'kuv filmlari, videolavhalar, vedeofilmlar, mul'tfilmlar namoyish qilinishi yoki vaziyatga ko'ra o'quv mavzusi bo'yicha o'zlashtirishga baho berish, mavzuni bolalar yaxshi idrok etishlari uchun turli muammolarni o'rta surish, shuningdek, ko'zlangan natijalarga erishish uchun mavzuning asosiy yoki yordamchi qismlarini o'zlashtirish uchun qayta-qayta takrorlash, mashq qilish tushuniladi). [3. G.Sharipova. Musiqa va uni o'qitish metodikasi. –T.: “Turon-Iqbol” nashriyoti. 2003-yil.

**Pedagogik trening** (tez o'qitish va yozish, mashq, fikrlash texnikasi, grafikasi, mimikasi, taqlid va fonatomika uslublarini egallash) metodi. Bu metod har bir o'qituvchining pedagogik mahoratini, dars jarayonida yuksak fazilatlarini namoyish qila olishini bildiradi. Musiqa fani o'qituvchilari o'qish va yozishdan tashqari yuksak ijrochilik qobiliyatlarini namoyish qila olishi zarur, shuningdek, bu metod o'quvchilarda ham tez yozish, tez o'qish grafik va jadvallarni tez chizish, musiqa darslarida notalarni tez yozish malakalarini shakllantirishni bildiradi.

**O'quvchilar faoliyatini reyting baholash-** Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarni reyting baholash jarayonida ularning barcha musiqiy faoliyat

---

turlaridan o'zlashtirishlari nazarda tutiladi. Chunki ba'zi o'quvchilar ayrim faoliyat turlari bo'yicha o'z iqtidorlarini namoyish qilishsada, boshqa faoliyat turlari bo'yicha orqada qolishlari, ayrimlari esa uning aksini ko'rsatishi mumkin. Reyting baholash esa xolis bo'lishi lozim.

**Pedagogik kvalimetriya** (o'quvchilarni AKT vositasida testdan o'tqazish) musiqa fanini o'qitishda test sinovlari asosan choraklar, yarim yillik va o'quv yili

oxirida o‘tkaziladi. Test savollari musiqa savodi, musiqa adabiyoti va musiqa tarixi bo‘yicha o‘quv yili davomida o‘qitilgan bilimlar ko‘lami bo‘yicha tuzilib, bundan tashqariga chiqmasligi lozim, ya’ni musiqa tinglash ko‘shiq kuylash, musiqa savodi kabi faoliyat turlari bo‘yicha o‘quvchilarning olgan nazariy bilimlari asosida savollar tuziladi. Shuni aytish kerakki test savollari va ularga beriladigan javoblarning murakkablik darajasi sinflar osha oddiydan murakkabga tomon prinsipi asosida bo‘lishi lozim. Savollar hajmi esa, o‘quv materiali hajmiga ko‘ra bo‘lib, tuzilgan savollarning jami o‘quv materiali ko‘lamini to‘liq yoritishi muhim ahamiyat kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI:

1. J.G‘.Yo‘ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: “O‘qituvchi” nashriyoti. 2004-yil.
2. O‘.Q.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogika texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. –T.: “Fan” nashriyoti. 2006-yil.
3. V.N.Maksimova. Mejpredmetnye svyazi v protsesse obucheniya. –M.: “Prosvishenie”. 1988-god.
4. T.E.Solomonova. O‘zbek musiqasi tarixi. –T.“O‘qituvchi” nash. 1981-yil.
5. B.S.Abdullaeva. Fanlararo aloqadorlik turlari haqida. Uzluksiz ta’lim. – T.: 2005-yil. №1-son.
6. Nizomiy nomli TDPU (Res.ilm.anjuman). Uzluksiz ta’lim tizimida musiqa fanlarini o‘qitish masalasi. –T.: 2009-yil.
7. A. Qodiriy nomli JDPI (Res.ilm.anjuman). Yoshlar ongiga milliy istiqlol g‘oyasini singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning vazifalari. –J.:2006-yil.
8. G.Sharipova. Musiqa va uni o‘qitish metodikasi. –T.: “Turon-Iqbol” nashriyoti. 2003-yil.
9. E.P.Iova, A.Ya.Ioffe, O.D.Golovchiner. Utrennaya gimnastika pod muzyku. –M.: “Prosvishenie”. 1984-god.
10. M.Qosimova. Bolalar bog‘chasida o‘zbek xalq milliy raqslari. T.: “Xalq merosi” nashriyoti. 2003-yil.
- 11.N.Abrayqulova. Raqs jamoasi bilan ishlash uslubiyoti. –T.: “Xalq merosi” nashriyoti. 2003-yil.